



ILM-FAN - INNOVATSION TARAQQIYOT ASOSI

Istamova Shahzoda Islom qizi

Termiz Davlat Universiteti Milliy libos va san'at fakulteti

Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, ilmiy-ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar haqida ma'lumot beriladi. Ilm-fanni yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ilm-fan, taraqqiyot strategiyasi, raqobatbardoshlik, innovatsion markazlar, Choch, Binkat, madaniyat o'chog'i, Sarimsoqov o'qishlari, ta'lim-tarbiya, Uchinchi Renessans.

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olishi, sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan muammolarning yangicha yechimlarini o'ylab topish shuningdek, globallashtirish tufayli yuzaga kelayotgan baxsli masalalarni hal qilishga alohida e'tibor qaratadi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Shunday shiddatli raqobatda zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy qilish orqali yanada raqobatbardoshlikni oshish kerak.

ASOSIY QISM

Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo, yurtimizda yaratilgan entelektual va ilmiy texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimizda 300 dan ortiq ilmiy-taqdidot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy-texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda. Shuningdek O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tarmoq institutlari, ilmiy va innovatsion markazlar hamda korxonalarining o'zaro hamkorligini mustahkamlash, ilm-fan va ta'lim sohalaridagi ilmiy innovatsion faoliyatni rag'batlantiradigan shart-sharoitlarni yaratishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan "Poytaxt- madaniyat va ma'rifat bulog'i" dasturini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Toshkent qadimdan Binkat, Choch, Shosh nomlari bilan atab kelingan. Markaziy Osiyo esa tarixdan davlatchilikning bosh markazi, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat gurkirab rivojlangan shahar bo'lgan. O'zbekiston ilm-fanining betakror va salmoqli siymolaridan biri, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, Toshmuhammad Sarimsoqovning nomidagi Toshkent ilmiy maktabi hozirgi kungacha topologiya va funksional analiz bo'yicha yuzlab shogirdlarni yetishtirmoqda. Buyuk olim Toshmuhammad Sarimsoqovning ilmiy merosini chuqur o'rganish va xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Sarimsoqov o'qishlari" yo'lga qo'yildi. Sarimsoqov tug'ilgan Shahrixon tumanida esa bu



kishining nomlari berilgan aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab qurilishi rejalashtirilmoqda. Jumladan Jizzax Politexnika institutida “Innovatsion g’oyalar markazi” tashkil qilinishi ham rejalashtirilmoqda. Ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida jahon tajribasida loyihaviy boshqaruv o’z samaradorligini ko’rsatayotganini inobatga olib, yangi boshqaruv vositalarini joriy qilish va undan foydalanish amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga ilm-fanni yanada rivojlantirish va uning zamonaviy infratuzilmasini yaratishda avvalo, ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari zamonaviy asbob- uskunalar bilan jihozlanmoqda.

Bugungi kunga kelib yurtimizda ilm-fan taraqqiyotiga ko’maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish borasida milliy va ilmiy portal shakllantirilgan bo’lib, bu portal ilmiy salohiyatga doir barcha savollarni qamrab oladi. Buyuk yunon muallimi sharqda “Birinch muallim” deb ulug’lanadigan Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi” degan so’zlari miloddan 350 yil avval aytilgan. Demak insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bir o’ylab ko’raylik, dunyodagi rivojlanayotgan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga, ilm-fan yuksalishiga erishmoqda. Eng avvalo, ilm-fan va ta’limga qaratilgan ulkan e’tibor tufayli emasmi. Shuning uchun ham keying yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, Yangi O’zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada o’nlab muhim qaror, konsepsiyalar va dasturlar qabul qilindi. “Oqqan daryo oqaveradi” deydi xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning buyuk merosiga tayanib, yangi renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud. Har bir tumanda Innovatsiya va texnologiya markazi hamda “Loyiha guruhlari” tashkil etilgan bo’lib, ularda IT maktablari faoliyat yuritmoqda.

XULOSA

Dunyoda hech qachon bir xil tong otmaydi. Lekin jahondagi barcha xalq va davlatlar, butun insoniyat yorug’ tongga intilishdan charchamaydi. Biz O’zbekiston deb atalgan go’zal va qadimiy diyor farzandlari ham bugun milliy rivojlanish ufqlarini aniq belgilab, istiqloq sari ulkan qadamlar bilan bormoqdamiz. Bosib o’tilgan yo’l va erishilgan marra bizni buyuk manzilga – Uchinchi Renessansga yaqinlashtiradi. Ushbu maqolamda mamlakatimizning rivojlanish yo’lidagi barcha isloh qilingan va belgilangan eng muhim strategik yo’nalishlarni mazmun mohiyatini ochib berishga harakat qildim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. Toshkent(2020)
2. Zamonaviy ta’lim ilmiy-amaliy jurnali(116 b)
3. Solijonov Y. (2007).
4. <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2007-sp-71133409>